

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY

ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025



BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Bosh muharrir o‘rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Farmonov To‘lqin Xayitmuradovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Tahrir hay‘atining xalqaro a‘zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay‘ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), prof.

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), prof.

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), prof.

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), prof.

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), prof.

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n, prof.

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n, dots.

Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n, dots.

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – i.f.f.d. (PhD).

Tojiboyeva Nafisa Raxmiddin qizi – i.f.f.d. (PhD).

Mardiyeu Nurali – i.f.n, dots.

Kuvnakov Xaydar Kasimovich – i.f.n, dots.

Siddikov Zaxid Tulkunovich – i.f.n, v.b.prof.

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n, dots.

Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – i.f.f.d. (PhD), dots.

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), prof.

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc).

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc).

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc).

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc).

Xalilov Ilhom Mamatkulovich – b.f.d. (DSc), k.i.x.

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dots.

Namazov Ixtiyor Choriyeovich – q.x.f.d. (DSc), prof.

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li – q.x.f.d. (DSc), dots.

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., k.i.x.

Atabayev Ma‘ruf Maxmudovich – q.x.f.n., prof.

Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD).

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD).

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Elboboyev Abdug‘ani Shuxrat o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD).

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n., dots.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA‘LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma‘lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo‘jaligi
fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr, 788 sahifa.
E‘lon qilishga 2025-yil
29-noyabrda ruxsat etildi..





“AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNALI

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati.

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

- 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik
- 06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik
- 06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika
- 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik
- 06.01.06 – Sabzavotchilik
- 06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik
- 06.01.08 – O‘simlikshunoslik
- 06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish
- 06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
- 06.02.02 – Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish va ozuqa tayyorlash texnologiyasi
- 06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
- 06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish. O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o‘rmonlarini barpo etish, Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmekologiyasi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

Kurpayanidi, Konstantin Ivanovich

Institutional and investment factors of renewable energy development in Uzbekistan.....11

Mengnorov Almardon Abdirahmonovich

Tijorat banklarining iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili (Kapitalbank tahlili misolida).....20

Turayeva Nargiza Rustamovna

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish klasterlarini samarali boshqarish.....30

Xudoyqulov Hamidjon Abdullayevich

Mahalliy byudjet samaradorligini oshirish orqali mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash istiqbollari (Xorazm viloyati misolida).....40

Raimov Suhrob Jahongir o'g'li

Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar (MHXS) talablari asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....49

Panjiyev Behruz Muhiddin o'g'li

Tijorat banklarida kredit siyosatini takomillashtirish istiqbollari.....55

Djurayev Olimjon Narkulovich, Saidakbarov Jamshid Nematullo o'g'li

Inson resurslarini boshqarishda xorij tajribalaridan foydalanish usullari.....60

Sadikova Shohida Obidqul qizi

Piyozi yetishtirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi.....69

Beglayev Uchqun Xurramovich

Baliqchilikdan samarali foydalanish orqali sohani rivojlanish tendensiyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.....80

Sattarov Abdisamad Umirqulovich

Raqamli transformatsiya sharoitida bilimlar iqtisodiyotining resurs bazasini mustahkamlash yo'nalishlari.....87

Xalimov Javlonbek Shaxriyorovich

Mintaqada logistika tizimi samaradorligini baholashning ekonometrik yondashuvlari.....98

Umarova Hulkar Umidulloyevna

O'zbekistonda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish imkoniyatlari.....110

Nabiyev G'ulom Abdisalomovich

Mintaqa iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar.....116

Xalilova Madinabonu Abduraxmon qizi

Buxoro viloyati investitsiya salohiyatini baholash va iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanish yo'nalishlari.....132

Siroj Zarina Rustambekovna, Toxirova Shaxzoda

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida energiya samaradorligini oshirish: muammolar va yechimlar.....145

Ziyadillayeva Shaxnoza Samandarovna

O'zbekistonda kichik va o'rta biznes subyektlarida sifat menejmenti tizimlarining joriy etilishi va natijalari.....158

Esanova E'zoza Eldor qizi

O'zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishda yangi yondashuvlar va innovatsion modellar.....164

Kudratov Muhammad Rustamovich

Buxoro viloyatida sanoat korxonalari joylashuvining o'ziga xos xususiyatlari va sanoatni rivojlantirish tendensiyalari.....175

Bozorova Nargiza Tolibjonovna

Sanoat zonalarining investitsion jozibadorligini baholash va rivojlantirish yo'llari (Buxoro viloyati misolida).....187

Rayimdjanova Gulnoza Xolmatovna

Agile menejment va moslashuvchan tashkiliy tuzilmalar.....193

Akhmadkulov Dilshod Rakhmonali ugli, Ubaydullo Khattobov

Artificial intelligence integration in human resource management: transforming workforce strategies across Central Asian nations.....199

Botirova Xulkar Olimjonovna

Tadbirkorlik infratuzilmasini takomillashtirishning xorij tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari.....212

Ibroximova Nazokat Rustamjon qizi

Raqamli transformatsiyalar sharoitida tijorat banklarining strategik rivojlanish holatini tahlil qilish ("O'zsanoatqurilishbank" misolida).....221

Botirova Xulkar Olimjonovna

Infratuzilmaning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri.....229

Zayniddinov Vohidxon Vositovich, Tohirov Zufar Muzaffar o'g'li

O'quv jarayonini boshqarishda monitoring tizimlaridan foydalanishning samaradorligi va xorij tajribasi.....237

Jahongir Nurulloyevich Jurayev

O'zbekistonda davlat tibbiy sug'urta tizimini tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari.....243

Sa'dullayeva Sayyora Nasillo qizi

Yengil sanoat korxonalari boshqaruv hisobida moddiy xarajatlar hisobining nazariy asoslari va tahlili.....249

Qoraboyev Azizjon Abdurasul o'g'li

Farg'ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bosqichlari tahlili.....257

Ziyodullaev Sadiqjon Mamadullaevich

The role of the passive operations strategy in optimizing the bank's resource base: the example of uzbek commercial banks.....263

Sadikov Zafarbek Adilbekovich

Raqamli texnologiyalar asosida kredit portfelini optimallashtirish: AI va Big Data imkoniyatlari.....269

Javohir Islomov Iskandar o'g'li

Raqamli transformatsiya sharoitida kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....275

Negmatillaeva Zarina Baxodirovna

Aholi turmush farovonligini samarali boshqarishning kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati.....282

UO‘K:631.15:339.1

**BALIQCILIKDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOHANI
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ISHLAB CHIQUARISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH****BEGLAYEV UCHQUN XURRAMOVICH**

Toshkent davlat agrar universiteti
Agrobiznesni boshqarish va logistika
kafedrası dotsenti, i.f.f.d.
E-mail: beglayevuchqun@gmail.com
Orcid ID: 0009-0008-9491-6613

Annotatsiya. Maqolada turli mulkchilik shakldagi balikchilik xo‘jaliklaridan boshqarishda iqtisodiy rivojlantirishning asosiy tendensiyalari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari intensiv balikchilikning rivojlantirishning asosiy mezonlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: turli mulkchilik shakli, balikchilik, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, tendensiya, bozor iqtisodiyoti, xo‘jaliklarni boshqarish, klaster, samaradorlik, ishlab chiqarish, sohani rivojlantirish.

Аннотация. В статье освещены основные тенденции развития экономики в хозяйстве рыболовных хозяйств разных форм собственности, организационно-экономические механизмы и основные критерии развития интенсивного рыболовства.

Ключевые слова: различные формы собственности, рыболовство, организационно-экономический механизм, тенденция, рыночная экономика, управление фермерским хозяйством, кластер, эффективность, производство, развитие отрасли.

Abstract. The article highlights the main trends in the economic development of fisheries of different types of ownership, organizational and economic mechanisms and the main criteria for the development of intensive fisheries.

Keywords: various forms of ownership, fisheries, organizational and economic mechanism, trend, market economy, farm management, cluster, efficiency, production, industry development.

KIRISH

Baliqchilik tarmog‘i O‘zbekiston iqtisodiyotida agrar sohaning strategik muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi, chunki u mamlakat aholisini sifatli baliq va baliq mahsulotlari bilan ta‘minlash, aholi xonadonlarida baliq yetishtirish orqali ularning bandligini ta‘minlash, kichik tadbirkorlik va qulay agrobiznes muhitini shakllantirishga mo‘ljallangan muhim tarmoqdir. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy sharoitida har qanday davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida ichki bozorni jamiyatning barcha vakillari uchun arzon narxlarda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash va bozorni to‘ldirishdir. Baliqchilik tarmog‘i qishloq xo‘jaligi bilan bir qatorda aholini sog‘lom turmush tarzi asosida hayot kechirishi uchun

oqsilli mahsulotlarni yetkazib beruvchi tarmoq hisoblanadi. Shuningdek, baliqchilik tarmog‘i mahsulotlari oziq-ovqat, yengil va kimyo sanoatida hamda farmasevtika, tibbiyot mahsulotlarining xom-ashyosini yaratish uchun ishlatilishi mumkin.

Baliqchilik tarmog‘idan samarali foydalanishda tarmoqda faoliyat ko‘rsatayotgan subyektlarning ishlab chiqarish samaradorligining asosi, eng avvalo, ozuqa va xom-ashyo bazasining mavjudligi, suv resurslari bilan ta‘minlanganligi hamda baliq chavoqlarini yetishtirish tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi hisoblanadi. Ya‘ni, hozirgi bosqichda baliqchilik tarmog‘ida dolzarb muammolardan biri ortiqcha baliq ovlashdir. Me‘yorida ortiqcha baliq ovlash – bu baliq populyatsiyasining barqaror holatini buzilishiga, bu vaziyat esa baliq resurslarining kamayib borishiga olib keladi. Shuning uchun, baliqchilikdan samarali foydalanish orqali tarmoqni barqaror rivojlanish tendensiyaga ega bo‘lish chora-tadbirlarini belgilashni taqozo etadi.

Bugungi kunga kelib respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘plab baliqchilik klasterlari, xo‘jaliklari tomonidan ijobiy ishlar amalga oshirilib, baliq yetishtirish ko‘rsatkichlarida ham yaxshi natijalarga erishmoqda. Shuningdek, jahonda baliq yetishtirish bo‘yicha o‘z nufuzi va o‘rniga ega yetakchi bo‘lgan davlatlar bilan hamkorlik ishlari yo‘lga qo‘yilib, ularning ilg‘or texnologiyalarni mamlakatimizda qo‘llanilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik xo‘jaliklarini barqaror rivojlantirish ularni tizimli va samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish, sohani intensiv va innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish muammolari bo‘yicha mamlakatimiz va xorijiy davlatlar iqtisodchi olimlari turli yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan. Jumladan, xorijiy davlatlar olimlari: F.Berkis, R.Maxon, M.Solomon, R.Xilborn, P.Daniel, F.Rayner, F.D.Jonston, A.S.Tommas, S.Hammerland, K.Greer, J.Mattias baliqchilikni barqaror rivojlantirish va boshqarishda MDH davlatlari olimlaridan: S.I.Kurdyukov, A.K.Bogeruk, Dj.Riter, O.V.Kuznesova, N.V.Alesina, R.R.Galuliniya, J.M.Gordon, V.K.Kiselyov, P.A.Dushin, A.A.Tarasenko, V.S.Kazancheva, D.Sh.Yakubova va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan, hamda bu boradagi ayrim masalalar mamlakatimiz agrar iqtisodchi olimlaridan: D.R.Shoximardonov, S.S.G‘ulomov, R.X.Ergashev, I.O.Yunusov va boshqa olimlarning ilmiy asarlarida qisman o‘rganilgan hamda tadqiq etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Baliqchilikdan samarali foydalanish orqali sohani rivojlanish tendensiyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni tahlil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma‘lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Baliqchilik subyektlarini iqtisodiy samaradorligini oshirish, qolaversa aholi xonadonlarida ham baliq yetishtirish orqali bozorga sifatli mahsulot yetkazish

imkonini yaratdi. Baliqchilikdan samarali foydalanishda eng optimal variantlarini qo'llash orqali baliq mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish, oziq-ovqat xavfsizligini va aholi bandligini ta'minlash, hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, tarmoqda raqobat muhitini shakllantirish bo'yicha dolzarb masalalarga e'tibor berib kelinmoqda.

Baliqchilik tarmog'ini yangi rivojlanish bosqichining 2021 yil va hozirgi davriga qadar tub islohotlar negizida, Yangi O'zbekiston rivojlanishining taraqqiyot bosqichiga chiqishi baliqchilik tarmog'ini boshqarishning quyidagi yo'nalishlariga e'tibor qaratilmoqda:

birinchidan, baliqchilik tarmog'ini boshqarishda mavjud havzalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, shuningdek, tabiiy va sun'iy suv havzalarini elektron onlayn auksion orqali shaffof va bozor tamoyillariga asoslangan holda realizatsiya qilish tartibini joriy etilishi;

ikkinchidan, baliqni sanoat usulida yetishtirish va ovlash maqsadlaridan boshqa maqsadlarda tabiiy suv havzalarini ijaraga berish hamda baliq yetishtirishda foydalaniladigan texnologiyalarni respublikamizga olib kirishda bojxona bo'jlarini to'lashdagi imtiyozlar berilishi;

uchinchidan, baliqchilikni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini yo'lga qo'yilishi va baliqchilik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda ushbu mablag'laridan foydalanish tizimini tadbqiq etilishi;

to'rtinchidan, baliqni sanoat usulda yetishtirish, ovlash bilan birga, suv bo'yi turizmi maskanlari tashkil etilishi, baliqchilik klasterlarida turizmni qo'llab-quvvatlash, tarmoqda qo'shilgan qiymat zanjirini ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish va innovatsion faoliyatni samarali tashkil yetishilishi va h.k.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, baliqchilikdan samarali foydalanishda amalga oshirilgan asosiy vazifasi tarmoqda iqtisodiy-ijtimoiy o'sishning yangi bosqichga olib chiqish hamda xo'jaliklar faoliyatini diversifikatsiya qilish va mavjud muammolarni bartaraf etish imkonini beradi. Yangi O'zbekistonni taraqqiy etishida hozirgi strategik vazifalardan biri sifatida aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari va bandligini ta'minlash, shuningdek, agrar sohani rivojlantirishda ilmiy asoslangan yondashuvlar va tavsiyalarni ishlab chiqarishga yo'naltirish lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirilishi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash, aholi faravonligini yaxshilashdan iborat. Baliqchilikda iqtisodiy tizimni yaxshilashda global muammolarni, ya'ni suv resurslaridan foydalanish, iqlim o'zgarishi va ekologiya, ozuqa bazasi, energiya resurslari, moddiy-texnika ta'minoti, kadrlar bilan bog'liq bo'lgan muammolarni bartaraf etish orqali sifatli va arzon baliq mahsulotlari bilan ta'minlash masalasini hal etish mumkin bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, muayyan tizimni rivojlantirishning iqtisodiy muammolarini mamlakatda olib borilayotgan islohotlar va amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning umumiy kontekstida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Hozirgi aholi soni oshib borayotgan vaqtda shunday vaziyat vujudga kelmoqdaki, birinchidan, davlat budjet mablag'larini cheklanishi va shu sababli baliqchilikni yanada rivojlantirishga sezilarli

ravishda yordam bera olmaydi, ikkinchidan, baliqchilikni rivojlantirish mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini va aholi bandligini ta'minlash shartlaridan biri hisoblanadi.

Istiqbolga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi baliqchilik faoliyatini iqtisodiy o'sishini ta'minlashga xizmat qilishi va faoliyat yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish orqali barqarorligi ta'minlanadi. Shuning bilan birga, muayyan faoliyat doirasida boshqa samarali ishlab chiqarishlarni, xizmat ko'rsatishni rivojlantirish ushbu aniq vazifalarni yechimiga qaratilgan bo'lishi kerak.


Tadbirkorlik faoliyatida baliqchilik tarmog'iga moliyaviy resurslarni jalb etishdan oldin, biznes tuzilmalarini rivojlantirish va investitsiya kiritishga o'tish uchun tarmoqdagi imkoniyatlar, yaratilgan shart-sharoitlar o'rganiladi. Iqtisodiy qonunlar asosida tahlil qilinib, uning boshqaruv nazariyasi va amaliyotini iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bu iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va islohotlarni faol amalga oshirish davrida O'zbekistonda baliq mahsulotlari bozoriga xorijiy va mahalliy biznes sub'ektlarini kirib kelishini ta'minlaydi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, oziq-ovqat xavfsizligi, shuningdek, baliqchilikni raqobatbardoshligini oshirishga, importga qaramlikning xafini yuqori bo'lmasligi hamda baliqchilik yetishtiruvchi sub'ektlar o'rtasida manfaatli integratsiyalashuv samaradorligini oshirishga olib keladi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish, Qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish maqsadlari belgilangan. O'zbekiston iqtisodiyotini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni va bir-birini to'ldiruvchi iqtisodiy resurslardan foydalana oladigan sub'ektlarni tashkil etish yo'nalishlarini izlash va asoslashga qaratilgan.

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi sharoitida iqtisodiyotning real sektori bilan faoliyat olib borish sharoitlarida bir qator noaniqlar va beqarorlik kuzatiladi. Chunki, bozor munosabatlarining kengayishi baliqchilik tarmog'iga o'zining ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ekologiya va atrof-muhitning yomonlashuvi sababli suv havzalarida baliq mahsulotlari yetishtirish hajmiga va uning zaxirasiga sezilarli darajada kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga, har bir hududning baliqchilik faoliyatini olib borishi o'ziga xos tabiiy-iqlim sharoitida joylashgan bo'lib, ishlab chiqarish-iqtisodiy munosabatlarini shakllantiradi va mahalliy baliq mahsulotlari bozorini rivojlantiradi. Respublikamizda baliqchilik rivojlangan mintaqalarda o'zining ichki salohiyatidan foydalangan holda va uni amalga oshirib, baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishga u yoki bu darajada hissa faoliyatini kengaytirishni taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida baliqchilikdan samarali foydalanish qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning barqaror rivojlanish muammosini hal qilishga yordam beradi hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizm deganda, jamiyatning ma'lum sharoitlarida rivojlanish tendensiyasini ta'minlashda o'ziga xos xususiyatlariga ega


bo'lgan o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy usullar to'plamini o'z ichiga olgan boshqaruv tizimiga aytiladi, u orqali davlat boshqaruv sub'ekti sifatida o'z manfaatlarini boshqaruv obyekti, ya'ni tartibga solishda korxona manfaatlarini ushbu usullarga asoslanib, o'z faoliyatini rivojlantiradi, strategik rejalashtiradi, tashkil etadi va samarali amalga oshirib boradi (1-rasm).



Manba: muallif ishlanmasi.

1-rasm. Baliqchilik subyektlari faoliyati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tushunchasining elementlari

Olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz davomida, turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik xo'jaliklarini istiqbolli tuzilmasi, shu jumladan, kooperatsiya munosabatlari asosidagi xolding tuzilmalarini tashkil etish konsepsiyasini ishlab chiqdik (2-rasm). Mazkur konsepsiya baliqchilik tarmog'idagi resurs salohiyatidan samarali foydalanish, barqaror rivojlanish va tarmoqni yangi bosqichga olib chiqish imkoni beradi. Shuningdek, konsepsiyaning iqtisodiy mohiyati sinergetik samaradan iboratdir. Sinergiya tushunchasi yunon tilidan olingan bo'lib, hamjihatlik, birgalikdagi faoliyat, kooperativlik, birgalikda ishlash degan ma'nolarni anglatadi.



Manba: muallif ishlanmasi.

2-rasm. Baliqchilik xo'jaliklari barqarorligini ta'minlashda kooperatsiya munosabatlari asosida tashkil etish konsepsiyasi

XULOSA

Bugungi qishloq xo'jaligini rivojlanishida turli mulkchilik shakli asosida mahsulot yetishtiruvchi subyektlar faoliyatini yo'lga qo'yilgan hamda belgilangan konsepsiya, dastur, yo'l xaritalar orqali amalga oshirilmoqda. Jumladan, baliqchilik tarmog'ida kooperatsiya munosabatlari baliq yetishtirish jarayoni yo'lga qo'yilsa, ushbu hududning ijtimoiy-iqtisodiy tomondan o'sishiga va tarmoqga zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkonini beradi. Shuningdek, yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash, sotish va eksportga yo'naltirish imkoni paydo bo'ladi. Aholini yil davomida baliq mahsulotlarini bilan ta'minlashda yirik omborxonalar, baliqni qayta ishlash va tovar holatiga keltirish orqali baliq ishlab chiqarishda barqaror iqtisodiy o'sish tendensiyalariga erishiladi. Shuning bilan birga, baliqchilikda kooperatsiya munosabatlarida yirik baliqchilik xo'jaligi doirasida o'rta va kichik xo'jaliklar unga zaxiralarni jamlash, sotish va ta'minot tizimini ratsionalizatsiya qilish orqali faoliyatning barqarorligini oshirish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. R.Ergashev, S.Xalikov, U.Beglaev. Baliqchilik iqtisodiyoti. Darslik.: T.- 2020. – 292 bet.
3. Дорохов С.М. и другие. Прудовое рыбоводство. М.: Высшая школа, 1975. — 312 с
4. Zokirov O., Pardaev A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – T.: “O'AJBNT markazi”, 2003.-456 B.
5. Калиев Г.А. и др. Трудовые крестьянские (фермерские) хозяйства. Рекомендации. – Алма-Ата, 1990.- 30 С.
6. Karimov S., Temirov Sh. Hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi ma'ruzalar matni – Qarshi.: 2011. 105 b.
7. M.Blaug The Methodology of Economics or how economists explain Cambridge University Press 1992-416 p.
8. Maqsudov I., Jo'raev J., Amirov Sh. Chorvachilik asoslari o'quv qo'llanma - T.: 2012-361 b. – 12 bet.
9. Choriev Q.A. Qishloq xo'jaligida innovatsiyalar joriy qilish tizimini shakllantirish va rag'batlantirish istiqbollari (uslubiy tavsiyalar). - Toshkent, 2014.
10. Shoximardonov D.R. Mintaqalarda baliqchilikni rivojlantirish – T.: 2010.